

PSIXOLINGVISTIKANING TA'LIM SOHASIDAGI RO'LI

Abdug'aniyeva Mushtariy Muzaffarjon qizi

Andijon davlat chet tillari instituti, talaba.

E.mail: abduganiyevamushtariy23@gmail.com

Kurbanov Elbek Elmurodovich

Andijon davlat chet tillar instituti, f.f.f.d., (Phd) dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tillini o'rghanish mobaynida funksional nutqini o'stirish, nutq lingvistikasidan foydalanish, nutqni rivojlanirishning samarali usullari va ta'lif mazmunidan kelib chiqib mavzularga mos til materialini metodik tashkil etuvchi satsiolingvistikadan farqli o'laroq psixolinguistika xorijiy til o'qituvchisi uchun alohida ahamyat kasb etishi xaqida mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Psixolinguistika, metodika, nutq, tilshunoslik, psixika, ijtimoiy, ong, og'zaki nutq, nutqni idrok etish, mantiqiy taffakur, psixolinguistikaning predmeti, til materiali, grammatika, til ta'limi, nutuq rivojlanishi, talafuz, kognitiv ko'nikma, yozma nutq.

Asosiy qism. O'quvchilarga Ingliz tillini o'rghanish mobaynida funksional nutqini o'stirish uchun qo'shimcha manbalardan samarali foydalanish kerak, hamda yordamchi o'quv vositalari ko'magida ularning xorijiy tilga qiziqish va munosabatini yanada yuksaltirish, har bir mashg'ulotni interaktiv, ya'ni aktiv-o'quvchi usullarida olib borish, mashg'ulotdan so'ng ularga qo'shimcha murakkab bo'lmagan mashg'ulotlar berish va bu jarayonda noodatiy uslublardan foydalanish muhim ro'1 o'ynaydi.

Psixolinguistika - inson nutqiy faoliyatining pisixalogik va lingvistik jihatlarini o'rGANUVCHI fan hamda til, nutq, insonning ruhiyati va dunyoqarashini o'zgartiradi.[215.2]

Metodikaning psixolingvistika bo‘limi xorijiy tillarni o‘rganish jarayonida o‘quvchilarning nutuq rivojlanishidagi o‘ziga hos hususiyatlarini o‘rganadi.

Ayrim holatlarda grammatikani bilmasa, u gapira olmaydi deb asosiy etibor va urg‘uni o‘qishga, grammatikani o‘rgatishga qaratiladi. Lekin, bu noto‘g‘ri tushuncha. Intellektual salohiyat, o‘zlashtirish, qabul qilish, anglash va xotira darajasi har bir o‘rganuvchida o‘zgacha rivojlangan bo‘ladi. Kimdir eshitish, yozish yoki o‘qish orqali, yana kimdir esa faqat ko‘rish va so‘zlash orqali yaxshi qabul qiladi. Shuning uchun har bir o‘quvchiga psixolingvistik yondashib uning salohiyatidan kelib chiqib individual holda, o‘zlashtirish va singdirishning turli vositalaridan, eng muhimi og‘zaki nutqni rivojlantirish usullaridan ham unumli foydalanish zarur.

Psixolingvistika - nutqning hosil bo‘lishi , shuningdek, nutqni idrok etish va shakllantirish jarayonlarini ularning til tizimi bilan o‘zaro bog‘lanishi holatida o‘rganuvchi fan ; psixalogiya va lingvistikidan sintezidan paydo bo‘lgan .

Og‘zaki nutq mashg‘ulotlarini o‘tkazishdan maqsad o‘quvchilar yodidan ko‘tarilgan so‘z, ibora, namunalarni esga tushirish, inglizcha tinglash, gapirish uchun nutq organlarini tayyorlashdan iboratdir. Xusan, biror bir rasmni ko‘rsatib, nimani ko‘rayotgani va rasmda kimlar borligini so‘rash, ushbu vaziyat haqida qisqa esse yozish, shaxsiy pozitsiyasi va fikrini bildirish orqali og‘zaki nutq shakllana boradi. Ayrim mashqlar og‘zaki nutqda chet tillarda gapirishdan boshlansa, o‘quvchilar dars davomida o‘sha muhitda bo‘ladilar. Bu jarayonda, albatta, asta-sekinlik bilan tinglab tushunish, gapirish qobiliyati rivojlanib boradi.

Psixolingvistika inson nutqiy faoliyati modelini va psixofiziologik shakllanishini ishlab chiqib, ularni psixologik eksperimental yo‘l bilan tekshiradi.

O‘quv mashg‘ulotlari davomida psixolingvistikani qo‘llash orqali xorijiy tillarni o‘rganayotgan o‘quvchilarda gapirish, tinglab tushunish, o‘qish, yozish, xotira va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish, ularning bilim saviyasi va ma’naviyatini yuksaltirish, aqliy mehnat malakalarini hosil qilish, shuningdek

o‘quvchi shaxsining aqliy, hissiy va motivatsion xususiyatlarini rivojlantirishga erishiladi.

Hozirgi kunda ko‘plab tilshunoslar til faktlarini to‘liq tushunish uchun lingvistika ramkasidan chiqib, individning psixik jarayonlari doirasiga kirish lozimligini tan olishadi. Binobarin, til materiali kishi miyasida tashkil topadi va kerak paytda chiqariladi. Bunday psixik jarayonlar psixolingvistikating predmeti hisoblanadi.

XX asr tilshunosligining asoschisi shvetsariyalik tilshunos Ferdinand de Sossyur nutqiy faoliyatni (langage) ikki qarama-qarshi mohiyat: til (langue) va nutq (parole)ga ajratdi. Uning fikricha, til nutqiy faoliyatning faqat bir tomonini tashkil etadi. Til nutqqa ziddir. Til – ijtimoiy hodisa. U til jamoasining barcha a’zolari uchun majburiy belgilar sistemasidir. Til kishilik jamiyatida aloqa quroli, fikrni ifodalaydigan vositadir. Nutq – individual hodisa. Nutq – xohish va fikrni ifodalash aktidir[1].

Ferdinand de Sossyurning ta’limoti L.V.Shcherba tomonidan rivojlantirildi. U mazkur ta’limotga “individning psixofiziologik nutqiy tuzilishi” tushunchasini kiritdi. L.V.Shcherbaning psixolingvistikaga qo‘shgan hissasi uning “Til hodisalarining uch jihatni va tilshunoslikda eksperiment haqida” (1974) asari bilan belgilanadi. Mazkur asarda tilshunoslikning predmeti sifatida tilning quyidagi uch jihatni taklif qilinadi:

Birinchi jihat nutqiy faoliyat bo‘lib, unda olim so‘zlashuv va tushunishni nazarda tutadi. Shcherba belgilarni tushunish va talqin qilish jarayonining tovushlarni talaffuz qilish va so‘zlashuv jarayonidan faolligiga ko‘ra sira ham kam emasligini ta’kidlaydi.

Ikkinci jihat til tizimi bo‘lib, birinchi navbatda lug‘at va grammatikani qamraydi. L.V.Shcherba “to‘g‘ri tuzilgan lug‘at va grammatika mazkur til bilimini to‘liq yoritishi lozim” [17.1], - deb yozadi.

Til hodisalarining uchinchi jihatni til materiali, ya’ni “mazkur ijtimoiy guruh hayotining u yoki bu davridagi muayyan sharoitda so‘zlashuv va tushunishlar majmuyi” hisoblanadi.

L.V.Shcherba nutqiy faoliyat va til materiali o‘rtasidagi munosabatni quyidagicha belgilaydi: “Nutqiy faoliyat til materialini yaratadi. Til tizimi tilshunoslar tomonidan til materialidan chiqarib yuboriladi. Nutqiy faoliyat ham til materialini ishlab chiqaradi, ham til tizimiga o‘zgartish kiritadi. Shu bilan birga, til hodisalarining barcha uch jihatni bir-biri bilan chambarchas bog‘langan”.

Psixolingvistikada Til ta’limi psixolingvistikasi ham mavjud bo‘lib bu -

- eshitish asnosida tushunish
- o‘qib tushinish
- fikrni og‘zaki bayon etish
- fikrlarni yozma bayon qilishdir.

Eshitib tushunish:

Nutqiy signal dastlabki qayta ishlanish- tovush tolqinlarini qabul qilishi, qulq pardasini tebratib anashu tebranishlar ichki qulqqa uzatilib, miya qayta ishslash kerak bo‘lgan impuls larga aylantirilishi nazarda tutiladi.

Nutqiy persepsiya - bu jarayonda birliklar chastotasinig ahamyati judaham katta.

Ya’ni qanchalik ko‘p eshitilsa shuncha ta’nilishi oson.

O‘qib tushunish:

Ko‘z orqali nur qabul qilinib, nur qayta ishlanadi va ma’lum bir grafik shaklga ma’no yuklanilib o‘qish qobilyati rivojlanadi.

Og‘zaki nutq:

Inson hayotining dastlabki vaqtidanoq muloqot ehtiyoji sabab tilni o‘zlashtiradi, gapirishga harakat qiladi. Yillar davomida tajriba asosida og‘zaki nutq o‘zlashtiriladi.

Nutq hosil qilinishida hozirgi psixolingvistikada 3 xil daraja farqlanadi:

Konsensualizasiya - bu gapirmoqchi bo‘lgan narsa to‘g‘risida umumiy tasavurni shakllanish darajasi.

Shakl berish - bu umumiy tasavurdan tushunchalarga o‘tish va so‘zlar tanlash darajasi.

Ifodalash darajasi - bu o‘zi ikkiga bo‘linadi

1-ovozlashtirish

2-talafuz.

Yozma nutq:

Yozma nutq shakllari asosan, bayon, diktant va inshodan iborat. Bayon va inshoda boladan ijodiylilik talab qilinar ekan, u faqat badiiylik nuqtai nazaridan baholanadi.

Matn strukturasi hamda yozma nutq malakasini rivojlantirish uchun quidagi uch bosqichni amalga oshirish kerak:

1 Yozishdan oldin mavzu yuzasidan muhokama qilish.

2 Qoralama

3 Tahrir qilish.

Chunki hech qachon sifatli matn bitta yozishda tayyor bo‘lmaydi.

Har qanday dars psixolingvistik jarayondir, chunki bola unda til vositasida berilgan ma’lumotni dekodlaydi yoki o‘z bilimini ifodalash uchun kodlaydi. Insonning har qanday kognitiv ko‘nikmasi tajriba asosida shakllanadi.

So‘nggi o‘n yillikda lingvistlar, psixologlar tomonidan “til qobiliyat” muammosi qizg‘in muhokama qilinmoqda, bunda til qobiliyati deganda “til tizimini o‘zlashtirishda ko‘nikma va mahoratlarni tezlik bilan shakllantirishga yordam beradigan individual xususiyatlar” tushuniladi (F.De Sossyur, L.V.Sherba, J.Grin, M.K.Kabardov, V.I.Markova va boshq.)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Psixolingvistika Majmua 2021. E-library.namdu.uz
2. Психолингвистика — Нутқий фаолиятининг психологик ва лингвистик жиҳатлари Journal of Integrated Education and Research: Xorijiy sotsiolingvistika fanini o‘rganishning amaliy ahamiyati. www.journal.fledu.uz
3. Ingliz tilini o‘qitishda talabalarning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga qo‘yiladigan psixolingvistik talablar. Bestpublication.org
4. Xorijiy tillarni o‘qitishda psixologik yondashuv. www.oriens.uz
5. Nutq rivojlantirish psixolingvistik ta’limiy asoslari. www.newjournal.org
6. Psixolingvistika. Sh. Usmonova. www.library.navoiy-uni.uz